

Shermuhammad Munis Tarjimasidagi “Ravzatu-s-Safo” Asarida Qo‘llanilgan ba’zi Leksik Birliklarning Hozirgi Adabiy Tildagi Ma’nolari

Dilfuza Kuryozova¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada eski o‘zbek tili davri oid mashhur asarlardan biri Munis tarjimasidagi Ravzatu-s-safo” asari leksik tahlilga tortilgan. Xususan, faol leksik birliklarning tarkibi hamda o‘z va o‘zlashma qatlamga mansubligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy qatlam, leksika, tarixiy-etimologik tavsif, qo‘shimcha, sheva, “Ravzatu-s-safo”, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiy.

Shermuhammad Munis tarjimasidagi “Ravzatu-s-safo” asari leksikasi o‘zining boy va jozibadorligi bilan asarning boshqa tarjimalaridan alohida ajralib turadi. Asar leksikasini tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq qilish jarayonida qo‘llanilgan leksik birliklarni hozirgi tilimizda anglatadigan ma’nolari yuzasidan ba’zi mulohazalar paydo bo‘ladi.

Bugungi kunda “kesilgan daraxtning tanasi” ma’nosida ishlatiladigan yog‘och so‘zi Asarda yig‘och (yig‘ach) shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, qadimgi turkiy tilda “o‘simlik” ma’nosini anglatgan i otidan “katta” mazmuniga ega -g‘ach qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. K.Musayev ushbu so‘zning turli turkiy tillardagi shakl va ma’nolarini keng tahlil qilgan (3,27). Bu so‘z dastlab daraxtning kesilgan tanasi emas, umuman “daraxt” ma’nosini anglatgan. Xorazm shevalarida bu so‘z hozir ham ag‘ach shaklida har ikkala ma’noda – “daraxt”; “daraxtning kesilgan tanasi” qo‘llaniladi. Ag‘achning “daraxt” ma’nosi adabiy tildan joy olgan dialektizmlar sirasida ham bor: “Og‘ochlar barglari yerlarga tushdi”. (Omon Matjon). “Muqaddimat ul-adab”da yig‘a:c so‘zining har ikkala ma’nosiga ham misollar ko‘p: 1. Yangi yetkan yig‘a:c – nihol. 2. yay yig‘a:ci – kamonning yog‘och qismi kabi [3, 112]. Albatta, yig‘ach so‘zining o‘zagi i oti bo‘lgan holatda undan oldin y orttirilishi turkiy tillar fonetik qonuniyatlari doirasida tabiiydir. Iraq – yiraq, iring - yiring kabi. Eski o‘zbek tilida bu so‘z ham “daraxt”, ham “daraxtning kesilgan tanasi” ma’nosida ishlatilgan. Eski o‘zbek tilida uning masofa o‘lchovini anglatadigan ma’nosi ham bor. Bu so‘zning “masofa o‘lchovi” ma’nosini qulach so‘zidagi kabi yig‘ + ach tarzida -ach qo‘shimchasi bilan yasalgan, degan taxmin bilan fikr yuritadigan bo‘lsak, solishtirish uchun qulach so‘zining etimologiyasi borasida bir to‘xtamni ko‘rmaymiz. Ikkinchidan, masofa o‘lchovi ma’nosida predmet nomidan ko‘chgan tash (tosh) va boshqa so‘zlar ham bor. Umuman, numerativlar ot bo‘lishi tabiiydir. Eski o‘zbek tilida tosh so‘zi “tashqari” ma’nosidan boshqa “tosh” va “masofa o‘lchovi” ma’nolarida ishlatilgan. Qiyoslash uchun ko‘zdan kechirsak, fors tilida masofa o‘lchovlaridan biri bo‘lgan farsang (farsax) “sang” – “tosh”dan shakllangan. Shuning uchun ham Ogahiy Sa’diyning “Gulsiton”idagi(1,75) quyidagi parchada sang va farsang so‘zlarini asliyatdagi san’atni saqlab qolgan holda tosh va tosh so‘zlari bilan tarjima qilgan: “...to birasid ba kanori obe, ki sang az salobati u ba sang hameodam va xurush ba farsang hameraft” – “... bir ulug‘ suvning kanorig‘a ettikim, salobatidin tosh toshg‘a tegar erdi va xurushi bir tosh erga etar erdi”.

Yig‘achning “daraxt” va “daraxtning quruq tanasi” ma’nosiga misollarni yuqorida ko‘rdik. Lekin Eski o‘zbek tilidagi asarlar tabdili davomida bu so‘z ikki xil yig‘och va yag‘och shakllarida o‘qilgan. So‘zning etimologiyasi hamda eski o‘zbek yozuvining xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, uni bir xil – yig‘och shaklida o‘g‘irish maqsadga muvofiq sanaymiz.

¹ Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti



“Ayog” soʻzi “kosa”, “piyola”, “qadah” kabi maʼnolarini beradi. “Bu ot qadimgi turkiy tildagi “oʻyilgan joy” maʼnosini anglatgan *agʻ* otining ay shaklidan “kichik” maʼnosini ifodalovchi -(a)q qoʻshimchasi bilan hosil qilingan boʻlsa kerak” – degan mulohazaga quyidagi fikrlarni qoʻshish mumkin: ay- asosi “boʻlak boʻl-”, “judo boʻl-”, “ajrat-” maʼnolarida adabiy tildagi ayirmoq va shevalarimizda mavjud *ayilmaq* (mastlik holatidan chiqmoq) feʼllarida ham koʻrinadi. Shuning uchun ham Xorazm shevalarida mastlikdan hushyor holga kelgan odam *ayiq* deyiladi: “*ayiq vaxta gaplash*” – “hushyor paytida gaplash”. Muhimi, “alohida boʻl-” mazmunidagi ayir- feʼlining asosi dastlab *ay-* // *ad-* // *az-* shakllarida boʻlgan. Uning *ad-* shakli Oʻrxun-Enasoy yodnomalaridagi *adril-* feʼlida ham koʻrinadi: turk bodun qani bolmayin Tabgʻachda adrilti – turk xalqi xoni bilan boʻlmayin, Tabgʻachdan ayrildi. Endi ayaq // ayagʻ soʻzining “idish” maʼnosiga kelsak, *az* // *ad* // *ay* shakllaridagi feʼl maʼnolaridan biri ayil (otning ayili), aylan- soʻzlarida koʻringani kabi “doira boʻylab harakat qilmoq”dir. Undan aya- – “doira boʻylab harakatga keltir-” feʼli hosil boʻlgan va bir maʼnosi faoliyat natijasini ifodalash boʻlgan -q qoʻshimchasi bilan ayaq (doira shakliga keltirilgan, dumaloq shaklli) maʼnolaridagi ot yuzaga kelgan. Shunisi ham borki, bu tarzda tahlil qilsak, bu soʻz oʻz omonimi bilan bir xil fonetik oʻzgarishlarni “boshdan kechirgan” boʻladi: *azaq* // *adaq* // *ayaq*. (2, 218) Aks holda *ad-* asosli boshqa bir soʻz bilan, *agʻ* asosli boshqa bir soʻz deyarli doimo bir xil shaklda ishlatilganini izohlash qiyin boʻladi. Bundan tashqari, keyingi talqin narsa-buyum nomlarining nomlanish tamoyillari (shakl va hajmiga koʻra nomlash)ga ham muvofiq keladi. Mazkur soʻz hozirda kam boʻlsa ham, badiiy asarlarda “oyoq” shaklida “suyuqlik quyib ichiladigan katta idish” maʼnosida uchray turadi hamda shevalarda idish-ayaq juft soʻzining mavjudligi bu maʼnoning butunlay unutilib ketmaganidan darak beradi. Shuning uchun bu soʻzning nisbatan keyingi davr ijodkorlari tilida ham uchrashi bir tomondan, Munis tarjimasidagi “Ravzatu-s-safo” asari lugʻat fondi ular uchun etalon vazifasini oʻtagani bilan, ikkinchi tomondan oʻzbek shevalarida bu soʻzning isteʼmolda boʻlgani bilan izohlanadi. Masalan, Sher Muhammad Munis gʻazaliyotida “soqiy” maʼnosida ayaqchi soʻzi uchraydi: “Ayoqchi, tut manga bu dam chogʻirni”. Ayaqchi turkiynajod sultonlar huzurida maxsus mansab nomi ham boʻlgan. “Gavdaning tayanib turishi uchun xizmat qiladigan aʼzo” maʼnosidagi oyoq (eski oʻzbek tilida *ayaq* // *ayagʻ*) qadimgi turkiy tildagi “qadamlamoq” mazmunini anglatgan *a:d-* feʼlining ay-shakli asosida paydo boʻlgan. Bu shakl adim (adabiy odim) soʻzida saqlanib qolgan. Bir yutish natijasi yutum, bir qisish natijasi qisim boʻlganidek bir qadam bosish natijasi odimdir. Demak, “odim otmoq”dagi “otmoq” “irgʻitmoq” maʼnosidagi “otmoq” emas, qadimiy *a:d-* // *a:t-* feʼlidir. Shunga koʻra, keyinchalik choʻziq-qisqalik sifati bilan farqlangan bu soʻzlarning dastlabki mazmuni “bir joydan ikkinchi joyga tomon boʻlgan harakat”dir.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, “Ravzatu-s-safo” asaridagi leksika oʻzbek tilining tarixiy taraqqiyoti va madaniy rivojlanishining aksidir. Asar orqali tilning oʻzgarishini va soʻzlarning maʼnaviy, diniy yoki ilmiy kontekstda qanday ishlatilishini koʻrish mumkin. Hozirgi oʻzbek tilida baʼzi soʻzlar oʻzgarishga uchragan boʻlsa-da, koʻplari oʻzining asosiy maʼnosini saqlab qolgan. Asar leksikasi, shuningdek, tilning boyligini va turli kontekstlarda ishlatilishi mumkinligini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Neʼmatov X., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T., Oʻqituvchi, 1995
2. Sobirov A. Oʻzbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish.-Filol. Fan. nom. ...Diss. avtoref.-Toshkent, 2005.50 b.
3. Саъдий Шерозий. Гулистон. Таржимон Ғ.Ғулом, Ш.Шомухамедов, Р.Комилов, нашрга тайёрловчи М.Васфий. Т., “Ғ.Ғулом” нашр., 1968.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. II жилд. – Тошкент, Фан, 1961.
5. Тадинова, Р. А. К юбилею Кенесбая Мусаевича Мусаева // Урало-алтайские исследования. — Москва, 2011. — № 2 (5).
6. Пардаева, И. (2020). Идея, художественность, содержание и порядок. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 74-77.



7. Pardaeva, I. (2020). Mesnavi “Tarihi Muluki Ajam”-The fruit of the scientist's rational thinking. *Solid State Technology*, 63(6), 159-168.
8. Pardaeva, I. M. (2014). ON THE EXAMPLE OF THE ARTISTIC AND HISTORICAL PROSE OF NAVOI IN TURKISH. *The Way of Science*, 73.

